

KO'K NO'XAT NAV NAMUNALARINI O'RGANISH

Sarvinoz Anorboyeva

Samarqad agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi.

Akmal Xayitov

Samarqad agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annatasiya. Ko'k no'xat eng ko'p tarqalgan asosiy dukkakli don ekini hisoblanib, uning doni oziq – ovqat uchun, chorva mollariga oziqa sifatida va agrotexnikaviy ahamiyatga ega. Donining tarkibida o'rtacha 20 – 27% oqsil, 4 – 10 % gacha qandlar va A, V, V₂ S vitaminlari hamda mineral moddalari bor.

Kalit so'zlar. Don, dukkak, F2 duragay avlod, chatishtirish, mahsuldorlik, nav, namuna, liniya, tadqiqot, irsiylanish, boshlang'ich matireal.

Don-dukakli ekinlar O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligida katta iqtisodiy, ishlab chiqarish ahamiyatiga yega. Aholining oziq-ovqatga bo'lgan yehtiyolarini qondirishda, chorvachilikni konsentrat va omuxta yem, sanoatning ayrim sohalarini xomashyo bilan ta'minlashda dukkakli don ekinlaridan ko'k no'xat muhim o'rinni yegallaydi.

Don etishtirishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka yerishgandan keyin don etishtirishni ko'paytirish, mamlakat aholisi, xalq xo'jaligining donga bo'lgan talabini respublikada etishtirilgan don hosili hisobiga qondirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar bajarildi, farmonlar, qonunlar qabul qilindi.

Dukkakli don ekinlari dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lib, bu ekinlar qatoriga gorox (ko'k no'xat), yasmiq, no'xat, soya, loviya, mosh, vika, lyupin o'simliklari kiradi. Ularning doni, poyasi va barglari tarkibida ko'p miqdorda oqsil moddasi saqlanadi.

Ko'k no'xat eng ko'p tarqalgan asosiy dukkakli don ekini hisoblanib, uning doni oziq – ovqat uchun, chorva mollariga oziqa sifatida va agrotexnikaviy ahamiyatga ega. Donining tarkibida o'rtacha 20 – 27% oqsil, 4 – 10 % gacha qandlar va A, V, V₂ S vitaminlari hamda mineral moddalari bor.

Ko'k no'xatning pishgan va xom doni, shuningdek dukkagidan ham konserva tayyorlanadi. Ko'k no'xat chorva mollariga oziqa sifatida keng foydalaniladi. . Ayrim mintaqalarda bu ekindan siderat sifatida (yashil o'g'it) foydalaniladi.

O'zbekiston sharoitida ko'k no'xat – oraliq ekin sifatida ham foydalanilishi mumkin. Ko'k no'xat ekini turli tuproq – iqlim sharoitlarida tarqalgan. Hamdo'stlik mamlakatlarida uning maydoni jahonda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Asosiy maydonlari Rossiyada (70,2%) va Ukrainada (26,1%) katta maydonlarda Xitoy, Hindiston, Gollandiya, Germaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda ekiladi. Hozirda jahon dehqonchiligida 15 mln gektar atrofida ekiladi.

Rossiyada ko'k no'xat ekini seleksiyasi D.L.Rudzinskiy tomonidan 1905 yil Petrov Qishloq xo'jalik instituti (hozirgi Moskvadagi Timiryazev nomli Qishloq xo'jalik akademiyasi) qoshidagi seleksion stansiyasida boshlangan.

Professor Rudzinskiy ko'k no'xatning Germaniyali namunalarini o'rganish jarayonida tanlash o'tkazib, juda katta boy – boshlang'ich material tayyorlaydi va uning asosida Moskovskiy 559 va Moskovskiy 572 navlarini yaratgan. Moskovskiy 572 navi hozirga kadar o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas.

Rudzinskiy ishlaridan keyin ko'k no'xat ekini seleksiyasi soxasidagi ishlar sobiq Vyatsk, Kazan, Shatilov, Kamennostep va Omsk seleksion stansiyalarida keng avj olgan.

Tadqiqotlarning vazifalari. Har xil ko'k no'xat seleksion namunalarining sug'oriladigan yerlarda bahorda va yozda ekish, shuning asosida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini baholashdan iborat.

Tadqiqotlarimiz ob'ekti sifatida Butunrossiya o'simlikshunoslik ITI da yaratilgan 7 ta ko'k no'xat nav namunalari tanlab olingan.

Ilmiy tadqiqot ishlari «Metodika polevogo opta» (1985), «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (2007), O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi, O'zbekiston qishloq xo'jalik ilmiy-ishlab chiqarish markazlarining uslubiy qo'llanmalari asosida o'tkaziladi (1995-2000). Dala tajribalarimizda namunalar bir yarusda 3 qaytariqda joylashtirish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1 Tyutyunnikov A.I. Kak poluchat vysokiy uroжай goroxa. Moskva 1962
2. D.T.Abdukarimov “Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi” Toshkent 2009.
3. Mucha V. Dinamika respirachej aktiviy vhnedoemi of pouziti releney hmoty vikovoovsenej oko heavneho zdroja agraniceho hnojenia polnohos podarstvo // Pant Soil. 1985. Vol. 31 (1). -P. 22-27.